

## TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR VA ULARNING O'RNI

**Tojiboyeva Muqaddasxon Raxmatjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turli yosh davrlari va ularning xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda psixologik xususiyatlarni hisobga olish, har bir ta'lim oluvchiga individual yondashish masalalari keng yoritib berilgan. Shaxs va uning rivojlanishida psixologik xususiyatlarning o'rni haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *anatomik, individ, akme shaxs, akmeologiya, temperament, yosh xususiyatlari, rivojlanish, psixologik yondashuvlar*

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik(jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishlari tashkil etiladi. Bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish juda murakkab jarayon hisoblanadi, chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazmin bo'lishi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi kabi psixologik jarayonlarda namoyon bo'ladi. Har bir bolaning individual-o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari muhim ahamiyatga ega. Temperament (lotincha, "temperamentum" - "qismlarning bir-biriga munosabati") - shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishdagi turli yosh davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

- 1) Go'daklik davri- chaqaloqlik (1 oy) davri tugaganidan to 1 yoshgacha bo'lgan davr;
- 2) Bog'chadagi bo'lgan yosh davri-1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 3) Maktabgacha bo'lgan yosh davri-3 yoshdan 7 yoshgacha;
- 4) Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar: bolalar-7 yoshdan 11-12 yoshgacha;
- 5) O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar: o'smirlar, ilk o'spirinlar- 12-17 yosh.

Pedagogik akmeologiya sohasida barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanishi cho'qqisi- "akme shaxs" darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi. Pedagogika sohasida "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasidan farqli o'laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preforizm oqimi namoyondalari

fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarnig miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishi na rivojlanishiga oid 4 ta yondashuv qaror topgan. Ular:

1) Biologik yondashuv- inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiylarni ham namoyon qilib boradi.

2) Ijtimoiy yondashuv- inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3) Psixologik yondashuv- insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlah kabilar) tabiiy tavsifga ega. Insonning yo'nalganligi-qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4) Yaxlit yondashuv- shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari-motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ta'limning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifodalanadi. XX asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishga nisbatan turli yondashuvlar yuzaga kelgan. Xususan, ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan psixologik yondashuvlar ta'lim sifatini samaradorligini ta'minlaydi. Shuning uchun, ta'lim jarayoni tashkil etilayotganda har bir o'quvchining individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Barchamizga ma'lumki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bolalarni yoshligidan boshlab, qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirish amalga oshiriladi. Mazkur jarayonni amalga oshirilishi kelajakda har bir shaxsning bilim olishi, individual qobiliyatlarini namoyon qilishi, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishlari bo'yicha mehnat qilishga keng imkoniyatlar yo'lini ochgan.

O'zbekistondagi maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari rivojlanib, takomillashib bormoqda. Mamlakatimiz miqyosida ijtimoiy sohalarda o'tkazilayotgan ijobiy islohotlar natijasida, shaxsning erkin fikrlashi va mantiqiy mushohada qilish ko'nikmalarini yanada takomillashtirishi, fuqarolarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Ta'lim O'zbekiston xalqi manaviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga otadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va manaviyatni tushunib yetish boshlanadi", - deb ta'kidlagan edi Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etilishida har bir ta'lim oluvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish kerak. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlari psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida

tashkil etilgan. Jamiyat taraqqiyotida insonning bilimi va faol amaliy faoliyati to'g'risidagi fikrlar Muhtaram Birinchi Prezidentimizning "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli ma'ruzasida keltirib o'tilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X.Hodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent-2017.
2. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent-2010.
3. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov "Pedagogika tarixi". Toshkent-1996.
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi". Toshkent-2008.
5. I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". Toshkent-1992.
6. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
7. МУСТАЕВ, Р., ХАСАНОВ, Н., УБАЙДУЛЛАЕВ, С., & АЛИНАЗАРОВ, Н. В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый", (2), 458-459.
8. Мустаев, Р. Д., Хасанов, Н. Х., Убайдуллаев, С. С., & Алиназаров, Н. Н. (2023). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ КОМИТЕТОВ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Мировая наука, (1 (70)), 115-119.
9. Мустаев, Р. Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА ПАТРИОТИЗМ ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 252-262.
10. Damirovich, M. R., Nurmuhammad, X., Saydaliyevich, U. S., & Nosirxonzoada, A. N. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. PEDAGOG, 1(4), 1411-1414.
11. Мустаев РД. ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. ИЮДКОР О'QITUVCHI. 2022 Nov 26;2(24):100-21.
12. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 900-904.
13. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 978-983.
14. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(3), 1027-1032.

15. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗМЕРЕНИЕ УГЛОВ И РАССТОЯНИЙ НА МЕСТНОСТИ БЕЗ КАРТЫ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 79-83.

16. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.

17. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOQ 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.